

BEMOR VA DOKTOR TIMSOLI TALQINIDA BADIY NUTQNING O‘RNI (NODAR DUMBADZENING “ABADIYAT QONUNI” ASARI MISOLIDA)**Sh.Farhodjonova***FarDU 3-bosqich talabasi, Farg‘ona*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Nodar Dumbadzening "Abadiyat qonuni" romanidagi bemor va shifokor obrazlari binar tahlil qilinadi. Shuningdek, obrazlarni yaratishda badiiy nutqning roli tadqiq qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *roman, obraz, badiiy nutq, badiiy psixologizm, personaj nutqi, bemor va shifokor obrazi, ruhiyat tasviri, badiiy mahorat.*

Аннотация. *В данной статье анализируются образы больного и врача в романе Нодара Думбадзе «Закон вечности». Также исследуется значение художественного дискурса в создании образов.*

Ключевые слова: *роман, образ, художественная речь, художественная психология, речь персонажей, психология пациента и врача, образ психики, художественное мастерство.*

Abstract. *In this article the images of the patient and the doktor are analysed in the novel “The Law of Eternity” written by Nodar Dumbadze. Also, the importance of literary discourse in the creation of images is explored*

Key words: *novel, image, literary speech, literary psychology, character’s speech, the psychology of patient and doktor, describtion of spirit, literary skill.*

Har qanday badiiy asar ijodkor badiiy-estetik mahoratining mahsuli hisoblanadi. Yozuvchi asar yozar ekan, obrazlarning tasviriga alohida e’tibor qaratadi. Badiiy adabiyotda inson obrazini to‘laqonli yaratish, uni o‘quvchi ko‘z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar bo‘lib, muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlar shular jumlasidandir. Xususan, personaj nutqi badiiy asarda xarakter ruhiyatini ochish, umuman, inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi [1, 69]. Yozuvchi jamiyatdagi turli kishilar hayotini, rang-barang tabiatli odamlar xarakterini o‘rganadi va ularni badiiy voqelik fonida o‘zlarining nutqlari vositasida aks ettiradi. Odatda, qahramonning individual tili uning o‘z hayot tajribasi, dunyoqarashi, fahm- idroki, xulq-atvori, madaniy saviyasi, psixologiyasi va kasb- korini ravshan xarakterlab beradi [2,168]. Taniqli gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadze “Abadiyat qonuni” romanida obrazlarni yaratar ekan, ularning o‘z nutqi orqali ruhiyati, xarakteri, dunyoqarashi, tafakkurini namoyon etadi. Jumladan, shifoxonada davolanayotgan bosh qahramon Bachana Ramishvili, Bulika va hazrat Ioram – uch xil soha vakillari, lekin ularni bir xil kasallik – “yurak xastaligi” hamda shifoxona birlashtiradi. Har uch olamga mansub

taqdir egalarining bir palatadagi hayoti, suhbatida asosida katta hayot falsafasi ilgari suriladi.

Muallif bemor va doktor obrazlarini yoritishda, ularning ruhiyatini tasvirlashda personaj nutqidan samarali foydalanadi. Xususan, bemor bola Bachana salomatligidagi muammo sabab doktor qabuliga borganidagi epizodda umuminsoniylik tamoyillari asosida bemor inson ruhiyati yoritiladi:

– Mana senga yo‘llanma, o‘g‘lim. Choxatauriga borib, rentgenga tushib kel... Yuzingning qizili, ko‘zlarining yiltirab turishi menga yoqmayapti!

Bachana qog‘ozni to‘rt buklab, cho‘ntagiga soldi.

– Nima bo‘lgan menga, Yevgeniy amaki? – deb so‘radi u doktordan.

– Ko‘pdan buyon isitmang chiqadimi?

– Bir oycha bo‘lib qoldi.

– Terlaysanmi?

– Kunduzi faqat kaftlarim terlaydi, ammo kechasi suv bo‘lib ketaman! – Bachana terlagan kaftini shimiga artdi.

– Yo‘talanmi?

– Ba‘zan, lekin yo‘talganda qattiq yo‘talaman, nafasim ichimga tushib ketadi, – dedi Bachana ma‘yus tortib.

– O‘tgan hafta sal bor edi, mana muncha, – Bachana chimchalog‘ining uchini ko‘rsatdi.

– Nega shu paytgacha indamading, o‘g‘lim? – doktorning ovozi titrab ketdi.

– Menga nima bo‘lgan o‘zi - dedi Bachana xavotirlanib.

– Rentgenga tushib kelganingdan keyin aytaman.

– Bu kasalning nomi nima?

– Infiltrat... Og‘irroq shakli – bronxoadenit.

– Gruzinchasiga-chi? – deb so‘radi Bachana yopishqoqligini qo‘ymay.

Doktor javob bermadi. Stol yoniga o‘tirib, qog‘ozlarini bemaqsad titkilay boshladi.

Yuqoridagi tasvirlarda 15 yoshli Bachana va doktor suhbatida doktorning “ ovozi titrab ketishi”, “javob bermasligi”, “qog‘ozlarni bemaqsad titkilay boshlashi” hamda bemorga qanday kasallik bilan og‘riganini to‘g‘ridan - to‘g‘ri ayta qolmay, savollarini berib, taxminlariga aniqlik kiritgach javob, berishida ruhiyatidagi o‘zgarishlar psixofiziologik tasvirlar orqali yuzaga chiqsa, bemorniki esa “ ma‘yus tortib” , “xavotirlanib”, “yopishqoqligini qo‘ymay” ketma- ket savollar berishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, doktor muolaja uchun “o‘n ming so‘mga Tbilisidan topish mumkin bo‘lgan “kerakli dori-darmonlarni va yo‘llanmani yozib berganida, “u tayinlagan dorilardan ikki baravar qimmat” bo‘lgan “sariyog‘, sut, baliq moyi, ikra, tuxum, qand, asal va Baxmaro...” larni tavsiya qiladi. Bachana anchagacha indamay turadi, keyin cho‘ntagidan yo‘llanmani olib, yaxshilab tekislagach, stol ustiga qo‘yadi va miq etmay eshik tomonga yuradi:

– Qayoqqa, yigitcha? – to‘xtatdi uni doktor.

– Boray, endi, Yevgeniy amaki, kasalimni bir amallab o‘zim tuzatarman, – dedi Bachana qovog‘ini solib.

– To‘xta! Aptekaga kirib, gemotogen ol, har kuni uch mahaldan choy qoshiqda ichib yur. Foydasi bor... – doktor kissasidan o‘n so‘m chiqazib, Bachanaga uzatdi.

– Ma, ol...

Keltirilgan ushbu parchada ham doktor obrazining tushkunlikka tushib qolgan, dori uchun yetarli puli bo‘lmagan bemor bolaga oz bo‘lsa-da pul berib yaxshilikni tilashida hamda bolaning buvasi kela olmasligini bilgach, “tomog‘iga bir narsa qadalib, tutilib- tutilib so‘zlashi” da, xayrlashayotganida “ Aslo qo‘rqma, o‘g‘lim! Hali kech emas! Sen baquvvat yigitsan, har qanday dardni yengib ketasan!” deb dalda berishida uning ruhiy olami, insonparvarligi va shifokorlarga xos bemorga nisbatan mehri yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bemor Bachana og‘ir dardga chalinganini bildi, lekin u kasallikka yengilib, o‘limini kutib yashamoqchi emas, aksincha, uning hayotsevarligi, hayotga muhabbati, kasallikka taslim bo‘lmaslikka intilishi, davolanish uchun harakat qilishi fermer Glaxuna bilan suhbatida tasvirlanadi:

– Glaxuna amaki, meni fermangizga cho‘pon qilib olsangiz...

– Yoshsan hali, o‘g‘lim, qiynalib qolasan.

– Otang seni yoshingda ayiq ovlardi, dedingiz-ku!

– Otang pahlavon odam edi-da! Seni qara – puf desa uchib ketasan. Necha yoshdasan?

– O‘n beshda... Yo‘q demang, Glaxuna amaki!

– Ilojim yo‘q, o‘g‘lim.

Bachananing lablari burishib, ko‘zlari jiqqa yoshga to‘ldi.

– O‘tinib so‘rayman, Glaxuna amaki.

– Namuncha? Cho‘ponlik tushingga kirib chiqdimi?

– Sil bo‘ppoldim, Glaxuna amaki! – dedi Bachana ko‘z yoshini arang tiyib...

– Yevgeniy amaki aytdi...ko‘p yog‘ yesang, sut ichsang, tog‘ havosidan nafas olsang, tuzalib ketishing mumkin dedi...

Bemor tezroq sog‘ayish uchun, hech kimga ortiqcha yuk bo‘lmay davolanish uchun “puf desa uchib ketadigan” o‘n besh yoshli bola bo‘lishiga qaramay, jismoniy quvvatiga nisbatan qiyin bo‘lsa-da, cho‘ponlik qilishni xohlaydi va uning ruhiyatidagi osonlikcha taslim bo‘lmaslik hissi tushkun kayfiyatda bo‘lishiga, kasallikning zo‘rayishiga yo‘l qo‘ymaydi. Yosh bemorning sog‘ligidagi muammoni bobosiga aytishni istamay o‘zi hal qilishiga intilishi uning irodasi va bardoshi kuchli ekanligini ham anglatadi.

Romanning keyingi tasvirlarida bosh qahramon qirq yoshdan oshgan yozuvchi, kasalxonada yurak xastaligi sabab davolanayotgan bemor sifatida tasvirlanadi. Uni davolayotgan professor obrazi bolalikda Bachanani davolagan doktordan farqli o‘laroq, romanda batafsil yoritiladi, uning kasalxonadagi bemorlar bilan munosabati juda

samimiy va do'stona bo'lib, har bir bemorga "hazil qilib", tekshiruvlarda bemorlar salomatligidan "mamnun bo'lib", "qoniqish hosil qiladi". Shuningdek, doktorning kasbiga nisbatan mas'uliyati va bemorlariga g'amxo'rliqi Bachana va hazrat Ioramning xonadoshi Bulikaning vafotidan keyingi tasvirlarda "Bachana bilan ruhoniyni yomon o'y-xayollardan asrash niyatida palataga hech kimni yotqizmaslikni va bo'sh karavotni olib chiqib ketishni buyurgani" da hamda "Tbilisida gripp kasalligi xuruj qilib qolgan" ida yigirma kunlik karantin e'lon qilib, uning "buyrug'i bilan bemorlarning oldiga tanish-bilishlar u yoqda tursin, hatto yaqin qarindosh-urug'larni ham kiritmay qo'yishgani" da, "professor shaxsan o'zi palatalarni kuniga uch martadan aylanib chiqishi" da aks etadi.

Bemorning katta yoshga yetganida, kasallikdan azob chekib shifoxonada davolanayotganidagi ruhiy holati yaqin do'sti Vaxtang Ambokadzening kutilmagan tashrifida yaqqol seziladi:

–...Qani, gapir, tuzukmisan? Yuraging qalay?

–Qutulib qoldim shekili

–Demak, birga qutulibmiz... Menga qara, professor atigi uch daqiqagina vaqt bergan... Mana bu yerda dorilar bor... – Ambokadze stoldan tugunni oldi.

Bachana do'stining mehri va sadoqatidan g'oyat mamnun bo'ladi, suhbatda ham bilinib turibdiki, Vaxtang hech bir manfaatlarsiz do'stini ko'rish uchun keladi va unga do'sti Bachananing "sog'ligi va tinchligidan bo'lak hech narsa kerak emas!" Bemor esa o'rtog'i Ambokadze ketganidan so'ng "tomog'iga qadalgan ko'z yoshini g'ilq etib ichiga yutadi". Bachana shifoxonaga kelganidan buyon undan xabar olgani kelguvchilar, albatta, o'z "iltimoslari" bilan kelardilar, manfaatlari sabab uning holidan xabar olgandek ko'rinmoqchi bo'lardilar. Bachana esa samimiylik va manfaatparastlikning farqiga bora oladiganlardan edi. Shifoxonani tark etish chog'ida doktor bilan xayrlashar ekan, davolagan doktoriga "e'tibor va g'amxo'rlik uchun minnatdorchilik bildirib", doktorining "karavoti yonida o'tkazgan uyqusiz tunlari uchun kechirim" so'raydi, "kashi va oltin qo'llariga qasidalar aytishni istaydi". Shuningdek, bemor shifoxonada o'tkazgan ikki oy "kashfiyotlar pallasi" bo'lganligini aytadi:

–Nihoyatda mamnuniyat bilan chiqib ketyapman...Shu ikki oy, Nodar Grigoriyevich, men uchun butun umrga teng! ...Kasalxonangizda o'tgan ikki oy men uchun kashfiyotlar pallasi bo'ldi!

–Xo'sh nimalarni kashf qildingiz?

–Abadiyat qonunini!... Bu qonunning mohiyati shundan iboratki, Nodar Grigoriyevich...Insonning yuragi uning tanasidan yuz baravar og'irroq ...Shu darajada og'irki, uni bir kishi ko'tarolmaydi...Binobarin, biz, odamlar, toki tirik ekanmiz, bir-birimizga yordam berishimiz, bir-birimizning yuragimizga madad bo'lishga harakat qilishimiz kerak: siz – menga, men – unga, u esa – boshqa birovga, shu tariqa uzluksiz davom etishi lozim...Toki o'lim hayotda bizni yolg'izlik balosiga giriftor qilib qo'ymasin...

Bachana professorga qo‘lini uzatdi, u yaqinlashganida Bachana o‘zini tutolmay, professorni quchoqlab, mahkam bag‘riga bosdi.

–Ha... – dedi professor entikib. – sizga sun‘iy yurak to‘g‘ri kelmaydi...Sun‘iy yurak bilan siz yashay olmaysiz... Siz boshqachasiz!

Professor o‘zining vazmin kaftlari bilan uning yelkasini qoqqanida, Bachana abadiyat qonuni kuchga kirganini tushundi...

Tasvirlardan anglash mumkinki, bemor ruhiyatida o‘zgarishlar yuz berdi, u bosib o‘tgan yo‘liga xotirjam nazar tashlab, “xolisannamo baho bera oladigan” teran fikrli insonga aylandi. Muallif asardagi bemor, qolaversa, har bir o‘quvchi nigohida doktorlarga nisabatan mehr tuyg‘usini shakllantirib, “yuzi sal dag‘alroq, ammo xorg‘in ko‘zlaridan mehr va aql yog‘ilib turgan oliyjanob“ doktor obrazini yarata oldi. Yozuvchi yuqorida qahramonlar nutqida keltirilgan fikrlar orqali qalbi pok, ruhiy kamoloti yuksak inson obrazlarini bemor va doktorlar misolida yaratadi hamda o‘zining ezgu g‘oyalarini singdiradi, bemor va doktor obrazlarini yaratishda, ularning ruhiyatini, ichki olamini tasvirlashda badiiy nutqdan mahorat bilan foydalanadi. Romanda obrazlar o‘z nutqi orqali o‘quvchiga taniladi va tasvirlangan qahramonlar har bir kitobxon qalbidan joy oladi. Mallifning yuksak badiiy mahorati esa ana shunday obrazlarni yarata olishida va obrazlarni badiiy vositalardan mohirona foydalangan holda tasvirlashida yorqin namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A.Qodiriy, 2004.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akadernashr, 2013.
4. Nodar Dumbadze. Abadiyat qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
5. Ziyouz.com sayti